



SOVET XARBIY TIZIMIDAGI “XALQ LASHKARI” QO’SHINLARI TARIXI.

Qambarova Shoiraxon Asqarovna

t.f.f.d. (PhD), Qo’qon universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti

Abdurasulov Rahimjon Advohid o’g’li

Qo’qon universiteti Tarix yo’nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. *Xalqimiz boshidan kechirgan sovet yillaridagi qatag’on siyosati tarixini o’rganar ekanmiz “xaqsizlar” masalasi alohida tadqiqot mavzusi bo’la oladi. “Haqsizlar” 1918-1936 yillar oralig’ida ijtimoiy kelib chiqishi sababli saylov huquqlaridan maxrum qilingan fuqorolar bo’lib, ular qator ijtimoiy-iqtisodiy huquqlaridan ham maxrum qilingan edilar. Quyida “haqsizlar”ning harbiy xizmatga jalb qilinishi va “Xalq lashkari” deb nomlangan qo’shin turi xaqida fikr yuritilgan.*

Kalit so’zlar: *“Xaqsizlar”, qatag’on, ommaviy qatag’on, Qizil Armiya, Kirov rayoni, O’zSSR MIK, harbiy xizmat, Konstitutsiya*

ИСТОРИЯ ВОЙСК «ТЫЛОВОЕ ОПОЛЧЕНИЯ» В СОВЕТСКОЙ ВОЕННОЙ СИСТЕМЕ.

Аннотация. *Когда мы изучаем историю репрессивной политики советской власти, которую пережил наш народ, вопрос о «лишенцев» может стать отдельной темой исследования. «Лишенцы» — граждане, лишённые избирательных прав по причине своего социального происхождения в период с 1918 по 1936 год, а также они были лишены ряда социально-экономических прав. В данной статье рассматривается привлечение «лишенцев» к военной службе и тип армии, получивший название «Тыловое ополчения».*

Ключевые слова: *«Лишенцы», «Тыловое ополчения», массовые репрессии, Красная Армия, Кировский район, МИК УзССР, военная служба, Конституция.*

HISTORY OF THE "RESERVICE MILITIA" TROOPS IN THE SOVIET MILITARY SYSTEM.

Annotation. *When we study the history of the repressive policies of the Soviet regime that our people experienced, the issue of “disenfranchised” can become a separate topic of study. “Dischenzi” are citizens who were deprived of voting rights due to their social origin in the period from 1918 to 1936, and they were also deprived of a number of socio-economic rights. This article discusses the attraction of “disenfranchised” to military service and the type of army called the “Rear Militia”.*



Key words: *“Deprived”, “Rear Militia”, mass repressions, Red Army, Kirov region, MEC of the UzSSR, military service, Constitution.*

Tarixdan ma'lumki sovet xukumati tashkil topganidan parchalanguncha o'tkazilgan turli ko'rinishdagi qatag'onlarda sinfiylik tamoili yetakchi belgi bo'lib keldi. Sovet xokimiyati tashkil topgan dastlabki davrlardanoq “yod unsurlar” hisoblangan “mehnatsiz daromad topuvchi”lar turli ko'rinishdagi majburiy mehnatga jalb qilib kelindi. 1924 yildan barcha sovet fuqarolarini xarbiy hizmat qilishi majburiy etib belgilangach “ yod unsurlar” sovet qo'shini tarkibidagi “Xalq lashkari” qisimlariga chaqirildi.

“Xalq lashkari” mavzusiga 1920-1930 yillardan- 1980 yillar oralig'ida ham yetarlicha ahamiyat berilmadi va yoritilmadi. Faqat 1990 yillarga kelib SSSR parchalangach mustaqil Respublikalarda yangi xarbiy tizimni barpo qilish va rivojlantirish zaruriyatining paydo bo'lishi xarbiy tuzilmalar va soha xodimlari tarixini o'rganishga extiyojni paydo qildi. SHu munosabat bilan Sovet xukumati tashkil topgan dastlabki davrdan 1937 yilgacha mavjud bo'lgan “orqa qo'shinlar” tarixini o'rganishga qiziqish va extiyoj paydo bo'ldi. SHu mavzudaga oid tadqiqotlarda e'tiborga loyiq ma'lumotlar e'lon qilindi[1]. “Xalq lashkari” 1918-1937 yillarda mavjud bo'lgan xarbiy qo'shin turi bo'lib, unga sovet qo'shinlari tarkibiga chaqirilmaydigan sinf vakillari-“mehnatsiz daromad oluvchilar”-quloqlar, zadagonlar, dindorlar va boshqalar jalb qilingan. Dastlab ko'ngillilardan tuzilgan “Qizil armiya” fuqorolar urushi davrida qo'shimcha kuchlarga extiyoj sezdi. SHuning uchun ham sovet xukumati uning tarkibini majburiy chaqiriq e'lon qilish bilan to'ldirdi.

Birinchi “Qizil armiya” tarkibiga chaqiriq 1918 yilda qabul qilingan birinchi sovet konstitutsiyasining 19-bandi bilan mustahkamlab qo'yildi. Unga ko'ra : sovet xukumati barcha fuqorolarga inqilobni qo'lida qurol bilan himoya qilish imkoniyatini taqdim qiladi. Bu imkoniyatdan faqat ishchi-mehnatkashlar sinifi vakillarigina foydala oladi. Mehnatsiz daromad evaziga kun ko'ruvchi elimentlar esa boshqa xarbiy hizmatlarga safarbar etilishi aytilgan[2]. Barcha “yod unsurlar” yoki boshqacha aytganda “xaqsizlar” “Xalq lashkari”ga chaqirilgan. “Xalq lashkari” askrlaridan fuqorolar urushi yillarida turli xarbiy va fuqorolik inshootlarini qurishda foydalanishgan[3]. 1923-1924 yillardan boshlab ularni xarbiy sohadan tashqari ishlarga keng jalb qilindi.1925 yilda o'tkazilgan xarbiy sohadagi islohatlar natijasida mamlakatda xarbiy holat barqarorlashganligi tufayli “Xalq lashkari”ning mavjudligi maqsadga muvofiq emas deb topildi. O'sha davr qonunlariga ko'ra chaqiruv yoshidagi fuqorolar xarbiy xizmatga olinganida “yod unsur”larga mansub deb topilgan yoshlar “Xalq lashkari”ga olinishi lozim edi. Ammo ularga endi ehtiyoj yo'qligi uchun shu qimslarda hizmat qilishi kerak bo'lgan fuqorolarga alohida xarbiy soliq joriy etildi. Bunday soliqlar miqdori moliya bo'limlari tamonidan belgilanib holatga qarab daromad solig'iga teng yoki uning yarmi miqdorida belgilanar edi. Xalq lashkarida

hizmat qilishi lozim bo'lgan fuqorolar alohida xarbiy ro'yhatga olingan. Ularga xarbiy bilet o'rniga ularga "oq bilet" (oq rangli blankdan foydalanilgan)lar berilgan. 30-yillarga kelib mamlakatdagi sanoatlashtirish sababli 1931 yil 7-dekabirdagi "Xalq lashkari tarkibidagi fuqorolarning mehnatlaridan foydalanish" to'g'risidagi SSSR MIK va XKSning qarori qabul qilindi[4]. Unga muvofiq bu qo'shin tarkibida bo'lgan fuqorolar SSSR chegaralari da strategik ahamiyatga ega bo'lgan mudofaa inshootlarinibarpo qilishga yuborilgan. Bunday qismlardagi hizmat muddati uch yil bo'lib, yaxshi hizmatlari bilan o'zini namoyon qilgan yoshlarga huquqlari qaytarilgan. 1933 yil 1-fevral holatiga ko'ra SSSR Xalq lashkari tarkibida 42000 kishi hizmat qilgan. 1934 yil yanvar holatiga ko'ra shunday qismlarda hizmat qilayotganlar soni 47,3 ming kishini tashkil etgan. Armiyaga chaqiriq o'rniga xaqsizlarning farzandlari "Xalq lashkari"ga ro'yhatga olingan.

Kirov rayoni (hozirda Farg'ona viloyati Furqat tumani hududiga to'g'ri keladi. SH.Q.) ning 1932 yil 22-fevraldagi yig'ilish qaroriga ko'ra shu kunning o'zidayoq 1909 yilda tug'ilgan quloq va saylov huquqidan mahrum qilingan "haqsizlar"ning bolalarini ro'yhatini shakillantirish va ularni rayon melitsiyasiga topshirish kolxoz pravleniyalari raislariga topshirilgan[5]. Xarbiy hizmat vaqtida tozalovlardan o'tmagan va xarbiy qismlardan qaytarib yuborilgan fuqorolar "Xalq lashkari" qismlariga zahiraga ro'yhatga olingan. Andijon Okrug Xarbiy komissariati Okrugvoenkomi Simirnov imzosi bilan Andijon shahar soveti raisiga yuborilgan mahfiy xatida ilova qilingan ro'yhatdagi fuqorolarni hujjatda ko'rsatilgan sabablarga ko'ra "Xalq lashkari"ga ro'yhatga olish uchun saylov huquqidan mahrum qilish so'ralgan[6.8]. Ilova qilingan ro'yhatdagi jadval 5 ta bo'limdan iborat bo'lib, tartib raqami, fuqorolarning ismi-sharifi, yashash manzili, qaysi xarbiy qismdan bo'shatilgani va bo'shatilish sabablari ko'rsatilgan. Ro'yhatda 5 nafar fuqoro ro'yhati keltirilgan bo'lib, ularning 4 nafari yevropa millatiga mansub, 1 kishi mahalliy millat vakili. Ro'yhatda berilganlarning barchasi Andijon shahrida istiqomat qilishgan. Ularni huquqidan maxrum qilishni asoslash uchun, "ijtimoiy yod unsur", "haqsizning bolasi, sinfiy dushman va ijtimoiy havfli", "quloqning bolasi", "restoran egasining bolasi" kabi ayblovlar yozilgan[6.10]. Yuqoridagi kabi shahslar harbiy hizmat vaqtida o'zlarining saylov huquqlarini tiklashni so'rab murojaat qilishgan. O'zSSR MIKining Manjara raisligida 1933 yil 2-dekabrdagi haqsizlar shikoyatlarini o'rganuvchi komissiyaning 11-sonli protokolida "Xalq lashkari"da hizmat qilayotgan 3 ta xarbiy hizmatchining shikoyati ko'rib chiqilgan. Ushbu hizmatchilar haqida Kapustyanskiy ma'ruza qilgan. SHikoyatchilarning 2 nafari haqida polk komandiridan tavsifnoma (SH.Q.-xarakteristika) so'ralgan. Usmonov Rashitni saylov huquqini tiklash to'g'risidagi tmurojaati yuzasidan quyidagi ma'lum qilingan: polk komandirining bergan ma'lumotnomasiga ko'ra Usmonov Rashit saylov huquqidan mahrum qilinmagan. Ushbu harbiy bo'limga yuborilishiga sabab-azonchi (SH.Q. so'fi)ning o'g'li bo'lganligi ekani ta'kidlangan. Masalaga oydinlik kiritilgach bu masala hal

bo'lgan deb hisoblangan[7.150]. O'zbekiston SSR 58-Batalionning askari G.Ya.Logvinning xuquqini tiklashni so'rab 1933-yil 21-noyabrda O'zSSR MIK Sovetiga qilgan murojaati ijobiy qondirilgan va ushbu fuqaroning saylov huquqi tiklanganligi xaqida O'zSSR MIK Sovetining 10-sonli bayonnomasidan ko'chirma berilgan[7.15]. Saylov huquqidan mahrum qilinganlarni majburiy mehnatga jalb qilish holatlari ham uchraydi. O'zSSR MIK Sovetining 1930 yil 3-iyundagi yig'ilishi bayonnomasidan olingan ko'chirmada Saylov huquqidan mahrum qilingan kishilarni Dalvarzin qurilishidagi hashar ishlariga safarbar qilish to'g'risidagi Andijon shahar sho'rosi prezidiumining 1930 yil 24-chi apreldagi qaroridan ko'chirma eshitilgan. Yig'ilish qaroriga ko'ra Andijon shahar sho'rosi prezidiumining haqsizlarni Dalvarzin qurilishga hashar ishlariga jalb qilish haqidagi qarori bekor qilingan[8]. Prokratura organlari ushbu masala yuzasidan o'z vaqtida chora ko'rmaganliklari ta'kidlangan. Prokuraturaga okrug prezidium yig'ilishlarida ishtirok etish va qabul qilinayotgan qarorlarni nazorat qilish vazifasi yuklatilgan.

“Xalq lashkari” tarkibida hizmat qilayotgan fuqorolarning hizmat jarayonidagi ijtimoiy ahvoli ham boshqa qo'shinlarda hizmat qilayotgan tengdoshlaridan farq qilgan. Ularni asosan temir yo'llar qurish yoki kon ishlariga jalb qilingan. Ular ko'pincha shoshilinch qurilgan zax baraklarga joylashtirilgan. Ularga beriladigan oziq-ovqat ham boshqa askarlarnikidan farq qilgan. Masalan oddiy qism askarlariga birinchi taom sifatida go'shli sho'rva, ikkinchi taomga katlet va shirinlik berilsa, Xalq lashkaridagi askarlarga birinchi taom sifatida ko'pincha kram sho'rva, ikkinchi taomga esa kartoshka va baliq berilgan. 1937 yillarga kelib mamlakatda “xaqsizlarning” soni kamayishi “Xalq lashkari” sonining kamayishiga sabab bo'ldi. 1936 yil 25 noyabrda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasining 135 moddasida barcha haqsizlarning saylov huquqlari tiklash aytiladi[9]. Ushbu moddada 18 yoshga yetgan, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkka egalik holati va o'tmishdagi faoliyatidan qat'iy nazar deputatlarni saylash va saylanish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan. Aqli zaif va sud tamonidan saylov huquqidan mahrum qilingan kishilar bundan mustoasno ekanligi aytib o'tilgan. SHunga asoslanib narkomning 1937 yil 20 fevraldagi qaroriga muvofiq “Xalq lashkari” butunlay tugatildi[10]. Uning o'rniga “qurilish qism”lari tashkil etildi. Hulosa qilib aytadigan bo'lsak sinfiylik tamoyili barcha sohalarda bo'lgani kabi sovet xarbiy qo'shinlari safida ham saqlanib qolgan edi. Natijada uch yillik og'ir majburiy hizmatdan omon qolish uchun chaqiriq yoshidagi yigitlar huquqlarini tiklab, “qora ro'yhat”dan qutilishga harakat qilganlar.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Красильников С.А., Миненков Д.Д.** Тыловое ополчение как элемент системы принудительного труда: этап становления (1930–1933 гг.) // Гум. науки в Сибири. 2001. № 2. С. 41–46;
2. **Миненков Д.Д.** Политические аспекты и правовые основы становления тылового ополчения в России (1917–1930 гг.) // Гум. ежегодник. Новосибирск, 2002. Вып. III. С. 92–10
3. Декрет Совета Народных Комиссаров. № 604. О тыловом ополчении. | Проект «Исторические Материалы» istmat.info/node/30705
4. А.Е. Калинин. Правовые аспекты прохождения военной службы по контракту в Вооруженных Силах Российской Федерации... voenprav.ru/doc-993-6.htm
5. FVDA Furqat tumani bo'limi, 4-fond, 1-ro'yhat, 11-ish, 9-varaq.
6. AnVDA 94-fond, 1-ro'yhat, 37-ish, 8-10-varaq
7. O'zMA, 86-fond, 10-ro'yhat, 278-ish, 15-150-varaq
8. O'zMA, 86-fond, 1-ro'yhat, 6483-ish, 62-varaq
9. Конституция (Основной закон) СССР 1936 г.
http://cccp.narod.ru/work/book/konst_1936.html
10. Приказ НКО № 020, от 20 февраля 1937 года

